

**USTRUSHONA HUDUDIDAGI ARXELOGIK YODGORLIKLER  
VA ULARNING O'RGANILISHI**

*Shaxobiddin Abdullayev Norqo'zi o'g'li*

*A.Qodiriy nomidagi JDPU Sirtqi bo'lim*

*Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy ta'lif kafedrasini*

*stajyor o'qituvchisi*

**Mirzayev Usmon**

*JDPU Sirtqi bo'lim Tarix yo'nalishi*

*2-kurs talabasi*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada Usturshona hududida joylashgan arxeologik yodgorliklar, bu yodgorliklarning joylashuvi, bu hududlardan topilgan turli xil topilmalar va ularning kimlar tamonidan topib o'r ganilganligi haqida to'xtalib o'tilgan.

**Аннотация:** Данная статья посвящена археологическим памятникам, расположенным в Устуршонском районе, местонахождению этих памятников, различным находкам, найденным в этих районах и кем они были обнаружены и изучены.

**Annotation:** This article focuses on the archaeological monuments located in the Usturshona region, the location of these monuments, the various findings found in these areas and by whom they were discovered and studied.

**Kalit so'zlar:** Arxeologiya, madaniy meros, Chilhujra qal'asi, Ustrushona, Eski Xovos yodgorligi, Qo'rg'ontep, Qaliyatapa atrofida joylashgan Pardaqltep, Komilbobotepa, Yoqubbobotepa, Jumatepa, Qo'rg'ontep (G'allaorol) atrofidagi Qing'irtepa va Almantepa, nukleus

**Ключевые слова:** археология, культурное наследие, замок Чилхуджра, Уструшона, памятник Старый Ховас, Кургантепа, Пардакултепа, Комилбоботепа, Ягуббоботепа, Джуматепа, Тсин вокруг Коргонтепа (Галлаорола) ъиртепа и Алмантепа, ядро

**Key words:** Archeology, cultural heritage, Chilhujra Castle, Ustrushona, Old Khovas monument, Kurgantepa, Pardaqltep, Komilbobotepa, Yaqubbobotepa, Jumatepa, Qing around Korgontepa (Gallaorol) 'irtepa and Almantepa, nucleus

Bugungi kunda Vatanimiz hududidagi arxeologik yodgorliklarni o'r ganish masalasiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. 2001 yilda «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida», 2009 yil 16 iyunda «Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning

2018 yil 17 yanvardagi “Moddiy madaniy va arxeologik meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi F-5181-son farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi VMsining “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risidagi 21 sentabr 2019 yil 792-sonli qarori shular jumlasidandir.

Ustrushona hududidagi madaniy yodgorliklarni rasman o‘rganish uchun birinchi ilmiy safar taniqli sharqshunos P.I. Lerx tomonidan 1867 yilda amalga oshirilgan. Rossiya Davlat Imperator Akademiyasining maxsus topshirig‘i bilan Turkistonga ilmiy safar uyshtirgan P.I. Lerx rahbarligidagi ilmiy guruh kazak otryadi konvoyligida Jizzax yaqinidagi Ilono‘tti darasi qoyatoshlariga arab imlosida bitilgan ikkita tarixiy lavhadan nusxa ko‘chirgan va uni o‘qib, sharhlashga muvaffaq bo‘lgan. Natijada, Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragonning hijriy 828-yilda (1425-y) Jetalar yurti (Mo‘g‘uliston)ga qilgan g‘alabali harbiy yurishi hamda Buxoro hukmdori Abdullaxon II ning Toshkent, Farg‘ona va qozoq sultonlari ustidan qozongan g‘alabasi haqidagi zafarnomalari fanga ma’lum bo‘ladi (Valiev, Pardaev, 1994, 71-72s).

XIX asrning 70-yillarida Ustrushonaning tarixiy-madaniy o‘lkalaridan biri Shahristonga Xo‘jand uyezdi boshlig‘i polkovnik A. Kushakevich tashrif buyuradi va ushbu yerda saqlanib qolgan pishiq g‘ishtlardan qurilgan qadimiy inshoot haqida xalq orasida tarqalgan rivoyatlar, mavzening qadimiyatiga doir ma’lumotlarni qayd etadi.

1890-yilda Shahristonga taniqli mutaxassis, arxeolog va sharqshunos N.S.Likoshin keladi. U birinchilardan bo‘lib Chilhujra qal‘asining bat afsil tavsifini yozadi, Shahristonni o‘rganib uning to‘liq tavsifnomasini tuzadi, ma’lumotlarini qayd etadi. N.S.Likoshin Shahriston botig‘ida joylashgan bir qator qadimiy inshootlarning sug‘orilish tarixiga alohida e’tibor qaratadi.

Shahristonda 1893-yilda o‘tkazilgan dastlabki arxeologik qazuv ishlari O‘ratepa uchastka pristavi, shtab kapitan Stepanov nomi bilan bog‘liq. Qazuv ishlarining natijalari haqida Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagining 1896-yil 16-oktabrda o‘tkazilgan majlisida ma’lumot berilgan.

1894-yil Xo‘jandan Shahristonga qadar sayohat qilgan V.V.Bartold Shahriston va Chilhujra tarixi bilan bog‘liq afsona va rivoyatlarni mahalliy aholi tilidan yozib oladi. Uning fikricha, ikkinchi yodgorlik alohida diqqatga sazovor bo‘lgan. Shahriston botig‘idagi arxeologik yodgorliklarni va ulardan topilgan ayrim materiallarni IX-X asr tarixchi va geograflari asarlaridagi ma’lumotlar bilan solishtirib o‘rgangan olim Ustrushonada Arab xalifaligining kolonial siyosati bir muncha kuchsiz bo‘lganligini va shu omil tufayli, arab madaniyatini ta’siri mahalliy madaniyatga chegaralangan darajada ta’sir ko‘rsatganligini e’tirof etadi. Taniqli sharqshunos birinchi bo‘lib, yozma manbalarda ma’lumot berilgan Ustrushonaning poytaxti Bunjikatni Shahristondagi shahar xarobalari o‘rnida bo‘lganligini ta’kidlaydi (Bartold, 1963.s.223; 1964.s.331; 1966.s.89-90).

Toshkent shahrida 1895-yilda Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagini tashkil

topishi natijasida, o‘lkada olib borilayotgan arxeologik qidiruv va qazuv ishlari yanada faollashadi, qazuv qidiruv tadqiqotlari imkon qadar rejali asosda, aniq ilmiy maqsadlarga yo‘naltiriladi. To‘garakning 1896-yil 3-iyulda bo‘lib o‘tgan majlisida Shahriston va uning atrofidagi arxeologik yodgorliklar bo‘yicha aniq ma’lumotlar to‘plash haqida qaror qabul qilinadi. Ushbu qaror munosabati bilan O‘ratepa uchastka pristavi P.S.Skvarskiy tomonidan Shahriston qadimiyati bo‘yicha o‘sha davr uchun to‘liq hisoblangan ma’lumot to‘planadi (Skvarskiy, 1897,S41-45).

Eski Xovos yodgorligi ilk bor chor Rossiyasi davrida tadqiqotchi N.Likoshin, keyinchalik 20-asrning 30-yillarida M.Ye.Masson tomonidan o‘rganilgan. Biroq u paytda bu yerda aholi yashaganligi sababli arxeologik tadqiqotlar olib borish imkonи bo‘lmagan. Yodgorlik 1988-1989 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Sirdaryo arxeologiya otryadi tomonidan o‘rganilgan. Yodgorlikning yoshini aniqlash maqsadida olib borilgan qazishmalarni, 10 metr chuqurlikdan suv chiqib ketganligi sababli nixoyasiga yetmay tugatishga majbur bo‘lingan. 10 metr chuqurlikda mil. avv. 1 asrga oid madaniy qatlamlar aniqlangan. Xuddi shu otryad tomonidan 2003 -2004 yillarda yodgorlik xududida mil.avv. III asrga oid bir yarim g‘ishtdan ko‘tarilgan devor qoldiqlari va qadimgi Farg‘onadagi Eylatan madaniyati (mil.avv. VI-III asrlar)ga xos, lekin mahalliy kulollar tomonidan yasalgan sopol idishlar topildi.

Ustrushona qadimiyatini o‘rganishda I.A.Kastanening xizmatlari alohida diqqatga sazovordir. Bu tadqiqotchi Ustrushona mamlakati haqida o‘z davri va sharoitidan kelib chiqib maksimal darajada ma’lumotlar yig‘gan, imkoniyati boricha bu tarixiy-madaniy o‘lkaning o‘tmishini to‘liq yaratishga harakat qilgan. I.A. Kastane birinchilardan bo‘lib, O‘ratepaning tarixiy-topografik tavsifini tuzadi, uning shahristoni, arki-a’losi haqidagi fikrlarini bayon qiladi. U o‘rtalarda faoliyat ko‘rsatgan Shahriston (Qal’ayi-Qahqaha) xarobalarini o‘rganadi, tavsifini tuzdi, mudofaa devorlari haqida qimmatli ma’lumotlar qayd etadi, shaharning suv ta’minti bo‘yicha ma’lumotlar to‘playdi. Chilhujra va Shahriston “kotlovan”idagi qal’a, qo‘rg‘onlar, ular haqidagi mahalliy halq orasida tarqalgan afsona va rivoyatlarni yig‘ib, yozib qoldiradi. (Kastane, 1915)

O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan, o‘tmishda Ustrushonaning g‘arbiy sarhadlarini tashkil etgan Jizzax vohasida 1951-yilda O‘zbekiston FA tarix va arxeologiya institutining Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida Zarafshon ekspeditsiyasi Jizzax shahridan 50 km shimolda joylashgan Tuzkon va uning atrof hududini arxeologik qidiruv asosida o‘rganib chiqadi. Natijada, Tuzkon, Xonchorbog‘, Qolgansir manzillaridan neolit davriga oid chaqmoqtoshdan yasalgan tosh quollar va bronza davriga taalluqli, archasimon, to‘rsimon naqshli sopol idish parchalari topiladi (Anboev, 1963, s. 55).

1956-yil mazkur institutning Mohandaryo ekspeditsiyasi vohadagi arxeologiya

yodgorliklarini o'rganish ishini davom ettiradi va Jizzax shahridan 30 km shimol tomonda, qadimgi ko'chmanchi chorvadorlar bilan chegara cho'l mavzeida qurilgan, IX-X asrlarda faoliyat ko'rsatgan Qulpisar rabodi va Dunyotepa qal'asi kichik hajmli qazishmalar asosida o'rganiladi. Ekspeditsiya rahbari Ya.G'.G'ulomovning yozishicha, "Qulpisar rabodi muhim harbiy strategik joyda qurilgan. Unda ko'chmanchi qabilalarning talonchilik yurishlariga zarba beruvchi harbiy kuch jamlangan. Qulpisar so'zi ham shunday kelib chiqqan bo'lib, talonchilar yo'lini yopuvchi "bosh qulf", "asosiy qulf" ma'nosini anglatgan. Haqiqatdan ham, Qulpisar rabodi Jizzax vohasiga shimoliy-g'arb tomondan yo'nalgan yo'lning boshida joylashganligini hisobga olsak, bu fikrlar haqiqatga yaqindir. Chunki, yozma manbalar ma'lumotiga qaraganda, IX-X asrlarda Jizzax (Dizak)da ko'chmanchilarning talonchilik yurishlariga zarba beruvchi islom lashkari "g'oziyalar"ning bir qancha qarorgohlari mavjud bo'lgan (Pardaev, 2015, 35-36 b ).

Ekspeditsiya tomonidan aniqlangan Qulpisar mavzeyidagi qiziqarli topilmalaridan yana biri Dunyotepadan 150-200 m chamasi janubiy-sharq tomonda joylashgan tosh inshoot - dolmendir. Dolmen sag'ana, qabrning bir turi bo'lib, uning ustki qismi o'rtasi hovuzchasimon botiq, tosh bilan yopilgan. Ya.G'.G'ulomov fikricha, bu yerda qadimgi diniy urf-odatlardan biri, ma'budlar, ajdodlar ruhiga atab qilinadigan qurbanlik marosimlari o'tkazilgan. Dunyotepa qal'asining ilk qurilish davri milodiy eraning I-II asrlari bilan sanalangan (G'ulamov, 1961, s.92-96). Ta'kidlash joizki, mahalliy aholi tomonidan hanuzga qadar bu yerda qurbanlik marosimini o'tkazish an'anasi saqlanib qolgan.

Ushbu 1956 yilning kuz oylarida mazkur ekspeditsiyaning A.R. Muhammadjonov rahbarligidagi otryadi Jizzax shahrining janub tomonida, Morguzar tog'ining sharqiy qismida joylashgan Takatosh manzilidan, qoyatoshlarga o'yib chizilgan "suratlar galereysi"ni topishga muvaffaq bo'ladi. Neolit va bronza davridan rivojlangan o'rta asrlargacha bo'lgan uzoq o'tmish bilan sanalangan mazkur qoyatosh suratlarida turli hayvonlar-ihu, bug'u, ot, qoplon, it tasvirlari, odamlar va ularning olomon bo'lib ov qilishi, diniy marosimlarni o'tkazish manzaralari aks ettirilgan (Muhammadjanov, 1985, 9s).

1964-yil M.Aminjonova rahbarligidagi Samarqand otryadi O'zbekiston arxeologiya yodgorliklari majmuasini tuzish, xaritasini yaratish mavzusi bo'yicha Jizzax vohasi Zomin tumani hududida qidiruv ishlарini o'tkazadi. Shuningdek, otryad o'z oldiga Ustrushonaning o'rta asrlardagi Zomin rustoqi bosh shahri o'rnini aniqlashni ham maqsad qilib qo'ygan edi. O'rta asr Zomini sifatida talqin qilingan O'rdatepada qazuv ishlari o'tkazgan M.Aminjonova arxeologik topilmalarga asoslanib – "O'rdatepa IX-X asrlarda tashlab ketilgan Zomin madinasi bo'lishi mumkin emas, yangi shaharni Zominsuvning yuqori oqimidan, tog'dan chiqish qismida joylashgan to'rtta shahar o'rnidan izlash kerak", – degan fikrni bildiradi. Xuddi shu nuqtai-nazarni,

keyinchalik A.Berdimurodov ham qo'llab-quvvatlaydi (Aminjanova, 1969, s. 137-142; Berdimurodov, 1985, s.12-15).

1973-yilda yana bir ilmiy guruhi O'zbekiston Madaniyat Vazirligiga qarashli San'atshunoslik instituti va Toshkent davlat Universiteti arxeologiya kafedrasining qo'shma otryadi Jizzax viloyati Zomin tumani hududida qiduruv tadqiqotlarini o'tkazadi. Natijada, qadimgi va o'rta asrlar Ustrushonasi tasarrufidagi 40 ta arxeologiya yodgorligi o'rganiladi va tadqiqot natijalari bir munkha vaqt o'tib, ya'ni 1986 yilda ilmiy jamoatchilikka e'lon qilindi (Nemseva, Dresvyanskaya, 1968, s.221-229).

Shuningdek, mazkur Zomin tumanining tog' qismi 1977-yil O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasining sayyor otryadi tomonidan o'rganiladi va asosan tog' soylari havzalarida joylashgan 20 ga yaqin qadimgi moddiy-madaniyat qoldiqlari o'rni aniqlanadi (Rtveledze, Isxakov, Malikov, 1978, 536-537 b).

1978-yil O'zbekiston FA Arxeologiya institutida Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hududida muqim ish olib borish maqsadida Shimoliy Ustrushona (keyinchalik Jizzax) otryadi tuziladi. E.B.Qodirov rahbarligidagi mazkur otryad faoliyatning dastlabki natijasi sifatida G'allarol tumani, Obiz qishlog'idagi Qing'irtepa qal'asining 20 ga yaqin xonalari ochib o'rganiladi va bu yerdan 35 dona tangalar xazinasi topildi. Xazinada Turk xoqonligi maliklari tomonidan VIII asrda zarb qilingan tangalarning uchrashi diqqatga sazovordir (Abdukarimoxunova, Berdimuradov, Dormina, Kadirov, 1979, s. 542). Keyinchalik, Qing'irtepa yaqinida joylashgan Almantepani yuqori va pastki madaniy qatlamlari, ya'ni VII-VIII asrlar qal'asini taroq tishlarisimon yonmayon joylashgan uzun va tor xonalari ochib o'rganiladi (Berdimuradov, 1984, 39-40 s).

1987-yili Arxeologiya instituti qoshida Jizzax viloyatining asosan janubiy, yuqori tog' qismini o'rganuvchi Baxmal otryadi tuzildi. Otryad boshlig'i L.M.Sverchkov bir necha mavsum Zomin qo'riqxonasi hududidagi toshdan qurilgan Miq qal'asida qazuv ishlarini o'tkazadi va bu yerdan o'rta asr metallurglarining temir rudasini eritadigan qo'nalg'alarini topishga muvaffaq bo'ladi. Miq qal'asi yozma manbalarda qayd etilgan Mink rustoqiga qarashli Marsmand temirchilar shaharchasi sifatida e'tirof etilgan (Sverchkov, 1991).

Shimoli- g'arbiy Ustrushonaning arxeologik o'rganilish tarixida qadimshunos olim Muxtor Hasanovich Pardaevning xizmatlari katta. 1985 yildan buyon Ustrushonaning Jizzax vohasida O'zR FA arxeologiya institutining Jizzax otryadi M.H.Pardaev rahbarligida izlanishlar olib bormoqda. Ushbu olimning rahbarligida Sangzordaryosining quyi oqimi hududida joylashgan Qaliyatapa shahar yodgorligi, Pardaqultepa, Komilbobotepa, Rasulbobotepa kabi qishloq makonlarida muvaffaqiyatli tarzda qazuv-tadqiqot ishlari o'tkazilgan<sup>1</sup>. Bu tekshiruvlar natijasi M. Pardaevning

<sup>1</sup> Пардаев М.Х. Шимоли-ғарбий Уструшона кишлек қурилиши мөъморчилигининг илк ўрта асрлардаги айrim хусусиятлари // ИМКУ. Вып. 28. Самарканд, 1997. С. 142-148.

“Shimoli-g‘arbiy Ustrushona ilk o‘rta asrlarda” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi uchun asosiy manba bo‘lgan<sup>2</sup>. Oradan o‘tgan o‘ttiz yildan ortiq vaqt mobaynida ushbu otryad tomonidan Jizzax vohasida shahar madaniyating paydo bo‘lishi va taraqqiyot bosqichlari haqida tayanch ma’lumot beruvchi ko‘plab arxeologik manbalar qo‘lga kiritildi<sup>3</sup>.

Shimoliy Ustrushonaning arxeologik o‘rganilish tarixida qadimshunos olim Aleksey Andreevich Gritsinaning xizmatlari katta. Ushbu olim shimoliy Ustrushonadagi Sirdaryo (1985 yildan) va Zomin (1992 yildan hozirgacha) arxeologik ekspeditsiya rahbari sifatida ko‘plab yodgorliklarni ro‘yxatga oldi va ochib o‘rgandi<sup>4</sup>. Aleksey Andrevich tomonidan Ustrushonaning shimoliy qismida joylashgan Kultepa, Qoratepa shahar yodgorligi va shunga o‘xhash qadimgi aholi manzilgohlari – ko‘plab qishloq makonlari, rustoqlar va obod shaharlarning o‘rganilishi natijasida, tarixiy manbalarda ko‘p bora eslatilgan qadimgi yodgorliklar o‘rnini aniqlash va o‘rganish borasida ham muhim yangiliklar qo‘lga kiritildi. To‘rtko‘ltepa karvonsaroylarining o‘rganilishi esa Ustrushonada haqiqatdan ham “gavjum yarmarka va bozorlar mavjud bo‘lganligi” ni isbotlab, ular haqidagi ma’lumotlarga aniqliklar kiritdi<sup>5</sup>.

Shunday qilib XX asrning 80- yillari va mustaqillikning dastlabki yillari, shimoli-g‘arbiy Ustrushonada rejali ravishda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan yillar hisoblanadi. Bu paytda nafaqat Ustrushonaning dehqonchilik vohalarin o‘rganish yoki arxeologik qidiruv ekspeditsiyalarini uyushtirish, balki chorvadorlar madaniyatiga oid yodgorliklarni o‘rganish borasida ham muhim ilmiy yangiliklar qo‘lga kiritildi.

Istiqlol yillarida “Jizzax vohasida shahar madaniyating paydo bo‘lishi va taraqqiyot bosqichlari” mavzusi doirasida O‘z RFA Arxeologiya instituti Jizzax va Zomin ekspeditsiyalari tomonidan ham ko‘plab qazuv tadqiqotlari amalga oshirildi. Ayni paytda ham ushbu mavzu doirasida izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek O‘z RFA Arxeologiya instituti tomonidan Forish, Baxmal va Zomin tumanlariga uyushtirilgan maxsus ekspeditsiyalar faoliyatini ham ta’kidlab o‘tish lozim.

Mustaqillik yillarida G‘arbiy Ustrushona hududidagi arxeologiya yodgorliklarini o‘rganish ishlari yanada faollashdi. Xususan, Qaliyatepaning shahristonida statigrafik tadqiqotlar o‘tkazildi. 1-3-rabodlarning so‘nggi qurilish davri VI-VIII asrlarga oid moddiy-ma’daniyati planigrafik tadqiqotlar asosida o‘rganildi. Natijada, Qaliyatepa shahar yodgorligiga miloddan avvalgi III-II asrlarda asos solingani, V-VIII asrlarda shahar hududi kengayib rivojlangani haqida muhim arxeologik dalillar olindi (Pardaev, 2007, 80 s).

<sup>2</sup>Пардаев М.Х. Шимолий-гарбий Уструшона илк ўрта асрларда. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 1995.

<sup>3</sup> Пардаев М.Х. Қадимги Жиззах воҳасида ўтрок дехконлар ва кўчманчи чорвадорлар маданияти // ЎММТ №.33. Тошкент, 2002. С.146-153., Пардаев М. Кўй ва бўри руҳига сифинишнинг ўзаро боғлиқлиги ҳақида // Узбекистонда ижтимоий фанлар. Т.: 1995,- № 1. Б.42-46.

<sup>4</sup> Грицина А.А. Уструшанские были. – Ташкент: Издательство народного наследия им. А. Кадыри, 2000.,

<sup>5</sup> Грицина А.А. Раскопки караван-сарай Турткультепе// ИМКУ – Т.: “Фан”, 2006. -№.35. – С.263-275.

Bundan tashqari G‘allaorol vohasida Qo‘rg‘ontepa shahar yodgorligi o‘rganilib uning I asrdan XVIII asrlargacha bo‘lgan madaniy qatlamlari asosida shahar davriy sanasiga oydinlik kiritildi (Haydarov, Pardaev, Sariboev, Suvonqulov, 1997, 8-30 s).

Jizzax vohasidagi Yoqubbobotepa, Jumabobotepa qishloq makonlarida 2007 – yildan boshlab o‘tkazilgan qazuv tadqiqotlari ko‘lami chegaralangan bo‘lgani uchun ularning faqat so‘nggi qurilish davrlariga taalluqli inshootlar va moddiy madaniyat namunalarini aniqlanganini e’tirof etish mumkin. Yoqubbobotepa VI – VIII; Jumabobotepa V – VI asrlar bilan davrlanadi.

Sangzor daryosi bilan bog‘liq sug‘orma dehqonchilik mavzelarida ilk qal‘a-rabodlar qurilishi, rivojlanishi jarayonlarini, me’morchilik an’analari va rejalahtirish usullari davomiyligini o‘rganish maqsadida Qaliyatepa atrofida joylashgan Pardaqultepa, Komilbobotepa, Yoqubbobotepa, Jumatepa, Qo‘rg‘ontepa (G‘allaorol) atrofidagi Qing‘irtepa va Almantepa yodgorliklari ochib o‘rganildi. Bu turar-joy komplekslari misolida Shimoliy-G‘arbiy Ustrushona qal‘a-rabodlari me’morchiligida rejalahtirish usullarini paydo bo‘lishi va keyingi davrlarda rivojlanishini yaqqol kuzatish mumkin.

Jizzax va Zomin arxeologik ekspeditsiyasining chorvadorlar tarixi bo‘yicha olib borgan izlanishlari alohida ahamiyatga molik. Bu ekspeditsiyalar tarkibida izlanishlar olib borgan tadqiqotchi F.E. Toshboev tomonidan Jizzax vohasidagi ko‘chmanchi chorvadorlar madaniyatiga oid mozorqo‘rg‘onlari ochib o‘rganilgan<sup>6</sup>. Ularda vohadagi ko‘chmanchi chorvadorlarga mansub mozorqo‘rg‘onlarning paydo bo‘lishi, dafn marosimlari, yodgorlik sohiblarining qaysi xalqlar va etnik guruhlarga mansubligi vohada yaylov chorvachiligining paydo bo‘lishi va shakllanishi kabi masalalar tahlil qilingan<sup>7</sup>. Ushbu tadqiqotlar natijasida G‘arbiy Ustrushonaning Buyuk Ipak yo‘li savdosidagi o‘rni, ko‘chmanchi chorvadorlar tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar olinmoqda.

G‘arbiy Ustrushonaga qarashli Jizzax vohasining ibridoiy davr tarixining o‘rganilishi 1951 yilgacha faqat alohida ashyolar yig‘ish bilangina cheklangan edi.

Vohadan va unga tutash qo‘shni respublika hududidan o‘tgan asrning o‘rtalaridayoq tosh davriga tegishli ashyolar topilgan va bu Jizzax vohasining ham tosh davrini o‘rganish zaruriyatini ta’kidlash bilan birga bu borada vohaning ilmiy jihatdan samarador ekanligini ham ko‘rsatadi. Bu topilmalar Chordara, Kuksutepa shaharchalari atroflaridan va Yettisoy vohasidan topilgan bo‘lib, ularning xronologiyasi o‘rta paleolit va tosh davrining yakunlovchi bosqichi, neolit davri bilan belgilanadi.

Vohada o‘lkamiz ibridoiy davriga tegishli manzilgohlar mavjudligini

<sup>6</sup> Toshboyev F.E. Ustrushona chorvadorlarining ant ic davrdagi madaniyati. Toshkent, «TAFAKKUR QANOTI» 2014. – 237 Б..

<sup>7</sup> Тошбоев Ф.Э. Уструшона кўчманчи чорвадор халқлари дағн удумлари ҳақида баъзи мулоҳазалар. // Ўзбекистон тарихи ва маданияти. Тошкент, 2011, 300-304 б.,

B.Q.Sayfullaev tomonidan 2000-yilda, Jizzax viloyati, Forish tumani hududida joylashgan geologik kar’erdan topilgan tosh ashyo, ya’ni nukleus ham tasdiqlaydi. Mazkur topilma o‘zining hom-ashyo turi va ishlov berish uslublariga ko‘ra, Zarafshon vohasida joylashgan muste davri yodgorligi Qutirbuloq topilmalariga yaqin. Tadqiqotchi bu topilmani madaniy-davriy jihatdan mazkur madaniyat doirasidagi manzilgohlar qatoriga kiritadi. Bu esa voha aholisining Zarafshon vohasi qadimgi aholisi bilan doimiy madaniy aloqalarda bo‘lganligi va bu madaniyat sohiblarining bir qabila-jamoa ittifoqiga mansub ekanligi haqida hulosa qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, yuqoridagi izlanishlar natijasida o’lka tarixi bilan bog’liq juda ham qiziqarli ma’lumotlarga ega bo’lish bilan birga bu hududdagi yodgorliklarning qanchalik ahamiyatli o’ringa ega ekanligi haqidagi ma’lumotga ham ega bo’ldik. Ilk o’rta asrlardagi Ustrushona hududidan ko’plab yodgorliklar o’rganilgan bo’lsada, bu hududdagi ko’plab hali tarix haqida so’zlab beradigan yodgorliklar, turli xil topilmalar juda ham ko’p.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Pardaev M.H. “Shimoli-g’arbiy Ustrushona kishlok qurilishi me’morchiligining ilk o’rta asrlardagi ayrim xususiyatlari” IMKU. Vo’p. 28. Samarkand, 1997.S. 142-148.
- 2.Pardaev M.X. “Shimoliy-g’arbiy Ustrushona ilk o’rta asrlarda”. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 1995.
- 3.Pardaev M.X. “Qadimgi Jizzax voxasida o’troq dehqonlar va ko’chmanchi chorvadorlar madaniyati “ O’MMT №.33. Toshkent, 2002. S.146-153.,
- 4Pardaev M. “Qo’y va bo’ri ruhiga sig’inishning o’zaro bog’liqligi haqida” Uzbekistonda ijtimoiy fanlar. T,: 1995,- № 1. B.42-46.
- 5.Gritsina A.A. “Ustrushanskie bo’li”. – Tashkent: Izdatelstvo narodnogo naslediya im. A. Kado’ri, 2000.,
- 6.Gritsina A.A. Raskopki karavan-saraya Turtkultepe IMKU – T.: “Fan”, 2006. -№.35. – S.263-275.
- 7.Toshboyev F.E. Ustrushona chorvadorlarining antic davrdagi madaniyati. Toshkent, «TAFAKKUR QANOTI» 2014. – 237 B. .
- 8.Toshboev F.E. Ustrushona ko’chmanchi chorvador xalqlari dafn udumlari haqida ba’zi mulohazalar. O’zbekiston tarixi va madaniyati. Toshkent, 2011, 300-304 b.,